

"TASDIQLAYMAN"
"NEFT VA GAZ" jurnali tahririyati direktori

S. Xashimov

2022-yil «18» *avgust*



TANLASH HUJJATLARI

«NEFT VA GAZ» jurnalini nashr etish (sahifalash) va chop qilish

Buyurtmachi: "NEFT VA GAZ" jurnali tahririyati.

Toshkent - 2022

1. Tanlashda ishtirok etuvchilar uchun umumiy qo'llanma

<p>1. Umumiy tavsif.</p>	<p>Mazkur tanlash hujjati O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda Qonun deb yuritiladi) hamda shunga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevraldagi "Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3550-son qaron (keyingi o'rinlarda qaror deb yuritiladi) talablari asosida ishlab chiqilgan.</p> <p>Tanlash maqsadi: «NEFT VA GAZ» jurnalini nashr etish (sahifalash) va chop qilish</p> <p>Tanlashga qo'yilgan bir dona mahsulotni chop etish narxi: 60 000 so'mni tashkil etadi.</p> <p>Buyurtmachi tomonidan tanlashga taklif etilgan narxdan tanlashda ishtirok etuvchining taklif etgan narx1 oshib ketmasligi kerak.</p> <p>Xizmat ko'rsatishning texnik topshirig'i tanlash hujjatlarining texnik qismida aks ettirilgan.</p> <p>Tanlash taklifini rasmiylashtirish shakli-elektron tartibda amalga oshiriladi.</p>
<p>2. Tanlash tashkilotchilari.</p>	<p>Tanlashda "NEFT VA GAZ" jurnali tahririyati ishtirok etadi.</p> <p>Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy. STIR: 202 357 664</p> <p>Bank rekvizitlari: "NEFT VA GAZ JURNALI " MCHJ H/r: 20208000402578348001</p> <p>"Asakabank" Shayxontoxur f-li. STIR: 202357664 MF0: 00969, OKED:</p> <p>Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy. Tel: 97 758-00-25</p> <p>E.pochta: jurnal-ogu@mail.ru</p> <p>Tashkilotchining aloqa raqamlari: Sh/Azimova (97)7580025</p> <p>Tanlash "Buyurtmachi" ko'rsatmasiga asosan tashkil etilgan tanlash komissiyasi tomonidan 6 (olti) kishidan iborat guruh a'zolari ishtirokida amalga oshiriladi.</p>
<p>3. Tanlash ishtirokchilari.</p>	<p>3.1. Mazkur hujjatning 4.2.-bandida nazarda tutilgan yuridik shaxslardan tashqari faoliyat turidan qat'iy nazar barcha turdagi yuridik shaxslar, shuningdek, kichik biznes subyektlari mazkur tanlashda ishtirok etish huquqiga ega.</p>
<p>4. Tanlashni o'tkazish tartibi.</p>	<p>4.1. Tanlashda qatnashish uchun tanlash qatnashchisi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:</p> <p>a). Tanlash shartlari bilan tanishish maqsadida "Buyurtmachi"ning maxsus ma'lumotlar portaliga joylashtirilgan tanlash hujjatlarining elektron shaklini yuklab olishi;</p> <p>b). Mazkur tanlash hujjatlari talablariga asosan tanlash (konkurs) takliflarini taqdim etishi.</p> <p>4.2. Tanlashda quyidagi yuridik shaxslar ishtirok etishiga ruxsat berilmaydi:</p> <p>a). Faoliyati tugatilishi arafasida turgan yuridik shaxslar;</p> <p>b). Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud yuridik shaxslar;</p> <p>v). Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilgan ijrochilar;</p> <p>4.3. Buyurtmachi, quyidagi holatlarga ko'ra ishtirokchilarni tanlashda qatnashishdan chetlashtiradi:</p> <p>a). Taraflar o'rtasida O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun hujjatlari talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirsa, shu jumladan, pora berishni taklif qilsa, va'da bersa, tovlamachilik qilsa va boshqa korrupsiogen holatlar amalga oshirilsa.</p> <p>4.4. Tanlashda ishtirok etish uchun talab qilinadigan hujjatlar o'zbek va rus tillarida amalga oshiriladi. Agar boshqa davlat tilida taqdim</p>

	<p>etiladigan hujjatlar mavjud bo'lsa, unda albatta ushbu hujjatlar o'zbek va rus tillarida tarjima qilingan holda tanlashga taqdim etiladi.</p> <p>4.5. Tanlash ishtirokchisi:</p> <p>a). Taqdim etilgan hujjat va ma'lumotlar uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;</p> <p>b). Tanlashga bitta taklifni taqdim etish huquqiga ega;</p> <p>v). Tanlashda onlayn ravishda ishtirok etish huquqiga ega;</p> <p>4.6. Tanlash 2 (ikki) bosqichda amalga oshiriladi:</p> <p>a). Tanlash talabiga ko'ra taklif etilgan narxni aniqlash va solishtirish;</p> <p>b). "Buyurtmachi" tomonidan tanlash ishtirokchilarining taqdim etgan hujjatlariga asosan talablarni sifatli, tez va muddatida bajarish, ishlatiladigan mahsulotlar turi, shuningdek, e'lon shartlariga muvofiq bajarish muddati, sifati, to'lovni amalga oshirish shartlari bilan bog'liq boshqa holatlar ham baholanadi.</p>
5. Tanlashni o'tkazish muddati.	5.1. Tanlash ishtirokchilari tomonidan hujjatlar taqdim etilganidan keyin, komissiya a'zolari ushbu hujjatlarni 10 kun muddat ichida o'rganib chiqadi.
6.1. Baholash mezonini Komissiya tomonidan baholash mezonini va tartibi	O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevraldagi "Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3550-son qaror hamda tegishli nonnativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Tanlash ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflarni ko'rib chiqish va baholash mezonini takliflarni qabul qilish muddati tugaganidan keyin 10 kun muddat ichida amalga oshiriladi. Baholash mezonini jarayonida tanlash ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlar haqiqiy emasligi aniqlansa, komissiya ushbu ishtirokchini tanlashda qatnashishdan chetlashtiradi. Tanlash g'olibi berilgan takliflar va baholash mezoniga asosan aniqlanadi.
7. Shartnomani rasmiylashtirish tartibi.	7.1. Tanlash natijasiga ko'ra tanlash g'olibi (yuridik shaxs) bilan 2 (ikki) kun muddatda tegishli shartnomalar rasmiylashtiriladi.

Tahririyati direktori



S. Xashimov

"TASDIQLAYMAN"
"NEFT VA GAZ" jurnali tahririyati direktori

S. Xashimov


2022-yil «18» avgust

«NEFT VA GAZ» jurnalini nashr etish (sahifalash) va chop qilish maqsadida tanlash ishtirokchilari taqdim etgan hujjatlarni baholash mezonini bo'yicha


M A' L U M O T

T/r	Takliflarni baholash turi	Belgilangan ball
1.	Noshirlik (tipografiya, poligrafiya va h.k.) faoliyatida kamida 5 yillik tajribaga ega bo'lishi	- 30 ball
2.	Ish kuchi (xodimlar). Eng ko'p ishchi xodimlariga va sohasi bo'yicha ko'p yillik mehnat staji hamda tajribaga ega bo'lgan da'vo qiluvchi tashkilot yuqori ballar bilan baholanadi.	- 10 ball
3.	Moliyaviy ko'rsatkichlar (taqdim etilgan buxgalteriya hisobotlariga ko'ra)	- 20 ball
4.	Tanlash o'tkazilishi haqidagi e'londa ko'rsatilgan hamda talab etilgan barcha xarid qilish hujjatlarining komissiya tekshirishi uchun ishtirokchilar tomonidan xarid portaliga joylashtirilganligi	- 10 ball
5.	Mazkur xizmatlarni ko'rsatish uchun o'z texnologik bazasiga (bosmaxona stanoklari va boshqa qurilmalari) ega bo'lishi	- 30 ball


Mas'ul kotib (komissiya raisi)

 Sh. Azimova

 F. Sharipova

 F. Abduraximova

 U. Oripov

 R. Ivatova

 S. Dadajonov